

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruvining
2024-yil “27” may dagi
113 - sonli qaroriga

2 - ILOVA

Yuridik departament
Metodologiya boshqarmasida
2024-yil “6” august da
80 - son bilan

“RO‘YXATGA OLINGAN”

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Kuzatuv kengashining
2024-yil “05” iyun dagi
14 - sonli qarori bilan

“TASDIQLANGAN”



“Biznesni rivojlantirish banki” ATBning Investitsiya siyosati
(Yangi tahrirda)

“BIZNESNI RIVOJLANTIRISH BANKI” ATB
ICHKI ME’YORIY HUJJAT

“Biznesni rivojlantirish banki” ATBning Investitsiya siyosati

I. Umumiy qoidalar

1. “Biznesni rivojlantirish banki” ATB (keyingi o‘rinlarda – “bank”)ning mazkur Investitsiya siyosati (keyinchalik matnda – “Siyosat”) O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi 5992-sonli “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2023-yil 8-iyundagi 3441-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan “Tijorat banklari tomonidan ko‘chmas mulkni va boshqa mol-mulkni sotib olishga hamda unga egalik qilishga, shuningdek yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini yoki aksiyalarini sotib olishga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizomga shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari va bank Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib bankning investitsiya siyosatini tartibga soladi.

2. Ushbu Siyosat bankning investitsion faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va maqsadlarini belgilab beradi.

3. Siyosat harakatlar ketma-ketligini ta’minlashga va qimmatli qog‘ozlarga, shuningdek, boshqa korxonalarining ustav fondiga investitsiyalar kiritishda ishonchlilikni saqlashga qaratilgan. Siyosat va amaliyotning bir xilligi, investitsiya kiritishda paydo bo‘ladigan xatarlarni boshqarish uchun bank rahbariyati tomonidan qabul qilingan yondashuv va usullarni belgilaydi va bank rahbariyati va xodimlarini qimmatli qog‘ozlar portfeli, bankning investitsiya mablag‘lari va ularning diversifikatsiyasini samarali boshqarish bo‘yicha ko‘rsatmalar bilan ta’minlaydi.

4. Bank amaldagi qonunchilik va siyosat doirasida qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirganda va xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ulushlarni qo‘lga kiritganda, investitsiya kapitalidan yanada samarali foydalanishni ta’minlagan holda, shuningdek investitsiya obyektini aniqlash va sarmoya kiritishda amalga oshiriladigan tadbirlar samaradorligi bilan bog‘liq masalalarni mustaqil hal qilganda qimmatli qog‘ozlar emitentlari yoki kontragentlar bilan munosabatlarni tartibga soladi.

5. Bank mablag‘larini qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilishda quyidagi asosiy tamoyillarga: investitsiyani xavfsizligi, daromadliligi, o‘sishi va likvidligiga rioya qilinadi.

Xavfsizlik – deyilganida, tavakkalchilik xatari minimal darajada bo‘lgan, doimiy daromad keltiradigan investitsiya tushuniladi.

Investitsiyani daromadliligi – deyilganda, joriy yilda olinadigan daromad (dividend, ulush yoki foiz), investitsiyani o‘sishida esa investitsiyaning bozor bahosi o‘sishi tushuniladi.

Likvidlilik deyilganida – investitsiyani qisqa muddat ichida va zararsiz pul mablag‘iga aylanishi tushuniladi.

6. Investitsiya amaliyotlarini amalga oshirish natijasida, bank nafaqat foyda olish, balki aktivlarni ma'lum bir darajada diversifikatsiyalash orqali likvidliligini ta'minlaydi.

Bu yo'nalishda quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish orqali investitsiyadan dividend va foiz ko'rinishida, qimmatli qog'ozning narxini o'sishi hamda hosilaviy qimmatli qog'ozlar bilan o'tkaziladigan amaliyotlardan daromad olish;

bankni ta'sir etish doirasini kengaytirish va mijozlarning kapitalida ishtirok etish orqali yangi mijozlarni jalb etish;

sifatli investitsiya portfeli ni ta'minlash;

shubha tug'dirgan qimmatli qog'ozlarga hamda yuqori daromad keltirishi bilan bir vaqtda xavfli va xatarli qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilmaslik;

Investitsiya portfeli so'ndirish muddati turli xil bo'lgan qimmatli qog'ozlardan shakllanganda, bank ularni qayta investitsiyalash va daromadlilik darajasini saqlab turishni ta'minlaydi.

7. Bank tomonidan emitentning qimmatli qog'ozlarini sotib olishi investitsiya dasturining bir bo'lagi bo'lib, dastur – emitentni kreditlash, emitent olayotgan kreditiga va majburiyatli qimmatli qog'ozlar chiqarilishiga kafolat berish, investorlarni jalb etish, maslahat berish va boshqa xizmat turlari bo'yicha xizmat ko'rsatishni ham o'z ichiga oladi.

Dasturli investitsiya amalga oshirilgan taqdirda, mazkur amaliyotdan olinadigan daromad uzoq muddat ichida, agar qo'shimcha xarajatlar qilingan taqdirda esa (qilingan xarajatlar qismi) qisqa va o'rta muddat ichida olinishi rejalashtirilishi lozim.

8. Bank yuqori daromadlilikka ega bo'lishiga qaramay, yuqori darajadagi tavakkalchilikka ega bo'lgan, kelib chiqishi shubhali bo'lgan qimmatli qog'ozlarga investitsiyalarini amalga oshirmaydi.

9. Bank o'z mablag'larini O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq muomalaga chiqarishga ruxsat berilgan barcha turdag'i qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilishi mumkin.

II. Investitsiya siyosati maqsadlari va strategiyasi

10. Investitsiya siyosatining maqsadi, investitsiya amaliyotlarini bankning umumiyligi strategik rivojlanishiga mos ravishda amalga oshirish bo'yicha zarur sharoitlarni yaratishdan iborat bo'lib, ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi investitsiya strategiyalarini qo'llashi mumkin:

bankka to'langan foizlar va dividendlar hamda qimmatli qog'ozlarning bozor qiymatining oshishi hisobiga qimmatli qog'ozlarga va xo'jalik yurituvchi subyektlar ustav kapitaliga kiritilgan investitsiyalaridan foyda olish;

bankning ta'sir doirasini raqobatbardosh tarzda kengaytirish korxona va tashkilotlar sarmoyalarida ishtirok etish orqali yangi mijozlarni jalb qilish;

bankning iqtisodiy salohiyatini oshirish uchun kiritiladigan investitsiyalar bilan bog'liq boshqa operatsiyalar.

11. Siyosat maqsadlariga erishish uchun bank quyidagi investitsiya strategiyalaridan foydalanishi mumkin:

portfelli investitsiya - investitsiya qilingan davr mobaynida qo'shimcha xarajatlar qilmasdan maksimal daromad olish. Bu holdagi investitsiyadan daromad qisqa muddat ichida olinishi lozim;

dasturli investitsiya - mazkur yo'nalihsining asosiy maqsadi emitent faoliyatini rivojlantirish maqsadida yirik investitsiya dasturini ishlab chiqishdan iborat;

emitent boshqaruvida ishtirok etish. Bu yo'nalihsining asosiy maqsadi emitentning nazorat yoki aksiyalarining katta qismini sotib olib, emitentning xo'jalik-moliyaviy faoliyatini uning boshqaruva organlarida ishtirok etish orqali nazorat qilish;

investitsiyani keyinchalik sotib yuborish – bunda, qimmatli qog'ozni sotib olib keyinchalik sotib yuborish orqali foyda olish hisoblanadi. Bu turdag'i amaliyotlardan biri REPOdir.

12. Investitsiya siyosatining asosiy maqsadlaridan biri, investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish orqali investitsiya xatarini kamaytirish hisoblanadi.

Investitsiya portfelini diversifikatsiyasi – xatarning oldini olish maqsadida investitsiya portfelini turli moliyaviy instrumentlar va boshqa aktivlar bo'yicha taqsimlanishi tushuniladi.

Bankning investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish quyidagi to'rt yo'nalihsarda olib boriladi:

qimmatli qog'ozning yoki emitentning sifatiga qarab;

so'ndirish muddatiga qarab;

qimmatli qog'ozning turiga qarab;

geografik muhitga qarab.

13. Bank bir jamiyatning aksiyadori hisoblanib, mazkur jamiyatga kredit bersa, ayniqla jamiyat moliyaviy qiyinchilikka duch kelganida, bunda bank o'z investitsiyasini muhofaza qilish holati tushuniladi. Bank mazkur jamiyatni moliyaviy barqarorligini quvvatlashga majbur bo'lishi ham mumkin.

Bunday holatlarni yuzaga keltirmaslik maqsadida, bank tomonidan investitsiya kiritilgan xo'jalik yurituvchi subyektlarni kreditlash jarayonida ehtiyojkorlik siyosati tatbiq etiladi.

14. Bank qimmatli qog'ozlarni birlamchi va ikkilamchi bozorda hamda birja bozorida yoki uyushgan birjadan tashqari bozorlardan sotib oladi.

III. Qimmatli qog'ozlarning turlari va ularning konsentratsiyasi

15. Bank pul mablag'larini qonunchilik va me'yoriy hujjatlar talablariga rioya qilgan holda mamlakatda va undan tashqarida muomalada bo'lgan barcha qimmatli qog'ozlarning turi va xillariga amaldagi bozor konyukturasidan kelib chiqqan holda joylashtirishi mumkin.

16. Qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiya muddati, investitsiya qilingan qimmatli qog'oz turi va xillarining muomalada bo'lish muddatiga teng yoki bankning shu yo'nalihsdag'i strategiyasiga, bozor konyukturasiga, qonunchilik va boshqa bankning daromadlilik darajasiga ta'sir etuvchi faktorlarga bog'liq.

17. Bank o'z mablag'larini muomala muddati belgilangan past xatarli va yuqori likvidli pul bozori instrumentlariga (obligatsiyalar, depozit sertifikati, veksel boshqa turdag'i xalqaro qimmatli

qog‘ozlar) hamda muomala muddati belgilanmagan (aksiyalar) kapital bozori instrumentlariga investitsiya qiladi.

18. Har bir moliyaviy instrument xatarliligi, inflyatsiya hamda davlat siyosatini o‘zgarishi va iqtisodiy konyukturaga qarab, turli xil turdagи xususiyatlarga ega bo‘ladi. Investitsiya qilinishi kutilayotgan qimmatli qog‘ozlarga kutilayotgan daromadlilik darajasi, bankning soliq majburiyatları, xatar foizi, inflyatsiya xatari va kafolat talabnomasi kabi faktorlar o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

19. Mablag‘larni yuqori ishonchlilik bilan investitsiya qilishda ko‘proq aniq muddatli muomaladagi qimmatli qog‘ozga, davlatning qimmatli qog‘ozlariga investitsiya qilinadi. Davlat qimmatli qog‘ozlariga investitsiya qilishda asosan boshqa amaliyotlarda ishlatilmayotgan mablag‘lardan foydalaniлади.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank obligatsiyalari (keyingi o‘rnlarda – Davlatning Qimmatli Qog‘ozlari) bank uchun ancha qulay investitsiya instrumenti hisobланади.

IV. Bank tomonidan qimmatli qog‘ozlar bilan o‘tkaziladigan operatsiyalarga doir qo‘shimcha talablar

20. Qimmatli qog‘ozlarni ishonchliligi emitentning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish xususan, iqtisodiy holati darajasini, to‘lovga layoqatlilik, likvidlilik va rentabellik darajasi, moliyaviy barqarorligi kabi ko‘rsatkichlar orqali aniqlanadi. Qimmatli qog‘ozlarni investitsion sifatini ijobiyligi o‘zlik mablag‘larini yuqoriligi va mol-mulki qiymati bilan aniqlanadi.

21. Investitsiya xatarini aniqlashning muhim usuli, emitentning moliyaviy holati, moliyaviy barqarorligini diagnostika natijasi va to‘lovga qobiliyatllik darajalarini kompleks tahlil qilish hisobланади.

22. Bank tomonidan investitsiya qilinayotgan qimmatli qog‘ozlarning quyidagi qiymatlari o‘rganiladi:

nominal qiymati-qimmatli qog‘ozlarda ko‘rsatilgan pul summasi tushuniladi. Qimmatli qog‘ozlarning muhim xarakterlaridan biri uning nominal qiymati hisobланади. Qimmatli qog‘ozlarning sotib olish narxi, aynan nominal qiymatidan kelib chiqib belgilanadi;

qimmatli qog‘ozning bozor qiymati deganda qimmatli qog‘ozlar fond birjasining birja kotirovkasi varag‘iga kiritilgan bo‘lsa, ularning birja kotirovkalari mazkur qimmatli qog‘ozlarning bozor qiymati deb e’tirof etiladi;

balans qiymati-emitentning balansida aks ettirilgan bo‘lib, emitentning aksiyadorlik kapitali miqdoridan kelib-chiqib belgilanadi. Bu qiymat aksiyadorlik kapitalini majburiyatlariga nisbati orqali aniqlanadi;

tugatish(likvidatsion) qiymati-emitentning faoliyati tugatilgan taqdirda qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha amalga oshiriladigan to‘lov qiymati tushuniladi;

investitsion qiymati-investor tomonidan taklif etilayotgan narx bo‘lib, qimmatli qog‘ozlarni daromadliligini aks ettiradi.

23. Bankning qimmatli qog‘ozlar portfelinini boshqarish jarayoni, uning investitsion sifati va investoring manfaatlariga xos xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirilishi va yo‘naltirilishi lozim. Portfelinini boshqarishda qo‘llaniladigan metodlar va texnik imkoniyatlar portfelinini boshqarish usullarini o‘zida namoyon etgan holda aktiv va passiv modellariga bo‘linadi.

Aktiv modeli – portfelning investitsion maqsadlariga javob beradigan instrumentlarini sinchkovlik bilan kuzatib borishni va tezda qo‘lga kiritishni, hamda portfelga kiruvchi fond instrumentlarining tarkibini tez o‘zgarishini ko‘zlaydi.

Qimmatli qog‘ozlar portfelinini boshqarishni aktiv(agressiv) usuli, bozor o‘zgaruvchanligida qo‘shimcha daromad olish maqsadida portfel tuzilmasini doimiy ravishda o‘zgartirishni taqozo etib boradi. Bozorning o‘zgaruvchanligida ya’ni portfeldagi qimmatli qog‘ozlarni narxlarni o‘sishi va pasayishi natijasida, daromad olish yuqori risk bilan baholanadi, shu sababli bu usulni tuzilishi quyidagicha o‘rganiladi:

- portfel tuzilishini boshqarish;
- portfel riskini boshqarish;
- portfel lividliligini boshqarish.

Passiv modeli – esa uzoq muddatga mo‘ljallangan, oldindan risk darajasi aniqlangan yaxshi diversifikatsiyalangan portfellarni yaratishni ko‘zlaydi.

Qimmatli qog‘ozlar portfelinini passiv boshqarish usuli, uzoq muddatga ko‘zlangan istiqboli oldindan belgilangan risk darajasi yaxshi diversifikatsiyalangan portfelinini o‘zida namoyon etadi. Bu yondashuv samarali qimmatli qog‘ozlar bozori va yuqori sifatli qimmatli qog‘ozlar mavjud bo‘lganida amalga oshiriladi.

24. Bankning investitsiya portfelinini qayta baholash, qimmatli qog‘ozlarning bozor qiymatini balans qiymati bilan taqqoslash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Fond bozorida kotirovkasi mavjud bo‘limgan muayyan qimmatli qog‘ozlarning qiymati, emitentning moliyaviy hisobotlarini tahlil qilish asosida kitob qiymatini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Bunda aksiyalar qiymati sof aktivlar(majburiyatlar chegirib tashlangan aktivlar)ni muomalaga chiqarilgan aksiyalar soniga bo‘lish orqali hisoblanadi.

25. Bank tomonidan biror bir xo‘jalik subyektiga investitsiya qo‘yilma qilishdan oldin emitentning moliyaviy holati o‘rganib chiqiladi. Emitentning holatini o‘rganish jarayonida emitentning qaysi tarmoqqa tegishliligi va tarmoqdagi o‘rni, moliyaviy holati, mavqeyi va shuhrati, geografik muhiti kabi holatlari o‘rganiladi. Korxona (muassasa) faoliyati va uni baholashga ta’sir etuvchi hamda qimmatli qog‘ozlari holatiga oid muhim holatlar aniqlanadi.

Investitsiya portfelidan joy olgan har bir qimmatli qog‘oz emitentiga qimmatli qog‘ozlarni baholash uchun zarur bo‘lgan quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan hujjatlar yig‘majildi rasmiylashtiriladi:

bankning moliyaviy ahvolini, ishchanlik va bozordagi faolligini baholash uchun uning moliyaviy hisobotlari, bundan keyingi uch yil mobaynidagi buxgalteriya balansi tarkibi, debitor va kreditor qarzdorligi tahlil qilinadi;

mahsulotni (xizmatlarni) ishlab chiqarish va sotish dinamikasi;

qimmatli qog‘ozlar emissiyasi qisqacha bayoni (qarori yoki emissiya risolasi); emitent aksiyalari kursining tashkil etilgan bozordagi dinamikasi; dividendlarni hisoblash va to‘lash haqida ma’lumotlar to‘plami.

26. Bankning qimmatli qog‘ozlar portfeli holati bo‘yicha monitoring o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

qimmatli qog‘ozlarning turi va shakllari;
sotib olingan yoki sotilgan sanasi;
sotib olingan qimmatli qog‘ozlar soni;
bitta qimmatli qog‘ozni xarid bahosi;
qimmatli qog‘ozlarni sotib olish bilan bog‘liq xarajatlarning, komission xarajatlarni hisobga olgan holda umumiy summasi;
olangan dividendlar(foizlar);
oldi-sotdi bitimlaridan joriy sanaga olingan foyda.

27. Jamiyatning moliyaviy holati uning moliyaviy hisobotlari majmuasi xususan, buxgalteriya balansi, foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot, pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot, asosiy vositalar harakati, debtor-kreditor qarzlari yoyilmasi va boshqa ma’lumotlar asosida aniqlanadi.

28. Bank tomonidan investitsiya kiritilgan jamiyatlarning moliyaviy yil yakuni bo‘yicha bo‘lib o‘tadigan jamiyat aksiyador(ta’sischi)lar umumiy yoki navbatdan tashqari yig‘ilishlarida ishtirok etish uchun xabarnoma olingandan so‘ng quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

bank Boshqaruvi xabarnomaga muvofiq yig‘ilishda ishtirok etish uchun mas’ul xodim tayinlaydi;

tayinlangan mas’ul xodim yig‘ilishda bank nomidan ishonchnoma (bank Boshqaruvi, bosh buxgalter imzosi hamda muhr bilan tasdiqlangan) asosida qatnashadi;

kun tartibidagi masalalar yuzasidan bank nomidan belgilangan tartibda ovoz beradi;
yig‘ilish natijalari asosida bank Boshqaruviga hisobot beradi.

V. Qimmatli qog‘ozlar buxgalteriya hisobi va zaxiralarni tashkil qilish

29. Qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalarning buxgalteriya hisobi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2023-yil 29-sentabrdagi 3460-sonli “Tijorat banklarida foizlarni hisoblash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom va Adliya vazirligining 2023-yil 20-apreldagi 3336-1-sonli “Tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar”ning 7-bobi talablariga muvofiq yuritiladi.

30. Qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalarni hisobga olish 10700-“Oldi-sotdi qimmatli qog‘ozlar”, 10800-“Evroobligatsiyalar”, 15800-“Qaram xo‘jalik jamiyatlariga, qo‘shma korxonalarga va sho‘ba xo‘jalik jamiyatlariga qilingan investitsiyalar” va 15900-“So‘ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar” hisobvaraqlarida yuritiladi. Tahliliy hisob xarid qilingan qimmatli qog‘ozlar turlari va muddatlari, shuningdek emitentlar bo‘yicha alohida shaxsiy hisobvaraqlarda yuritiladi.

31. Xarid qilingan qimmatli qog‘ozlar xarid qiymati bo‘yicha hisobga olinib, u qimmatli qog‘ozlarni xarid qilish bilan bog‘liq barcha xarajatlarni (brokerlik va birja vositachilik to‘lovlari(komissiyalar) va h.k.), shu jumladan ko‘zda tutilmagan xarajatlarni ham o‘z ichiga oladi.

32. Bank hududiy tarmoqlari tomonidan amalga oshirilgan qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalar bo‘yicha zararlarni qoplash zaxirasi bevosita hududiy tarmoqlar tomonidan tashkil qilinadi.

33. Investitsiyalar hisobvaraqlari bo‘yicha zaxiralar umumiylasosda belgilanadi va 15899-“Qaram xo‘jalik jamiyatlariga, qo‘shma korxonalarga va sho‘ba xo‘jalik jamiyatlariga qilingan investitsiyalar bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash zaxirasi”, 15999-“So‘ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalar bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash zaxirasi” va 10799-“Oldi-sotdi qimmatli qog‘ozlardan ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash zaxirasi” hisobvarag‘ida aks ettiriladi. Ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash zaxirasi aksiyalarning “sof aktivlar/chiqarilgan aksiyalar soni” formulasi bo‘yicha hisoblab chiqiladigan “kitobiy (nazariy) qiymati” pasayganda tashkil qilinadi.

34. Bankning investitsiya portfeli bo‘yicha shakllangan aktivlar sifatini tasniflash, ular bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarga qarshi zahiralarni shakllantirish va foydalanishi tartibi:

Ko‘zda tutilmagan holatlar vujudga kelgan yoki oldindan kelishilgan shartlar o‘zgargan taqdirda, bank zudlik bilan investitsiyalardan va taqdim etilgan qimmatli qog‘ozlarni qoplashdan yo‘qotishlar tavakkalchilagini istisno etish yoki qisqartirish bo‘yicha choralar ko‘radi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2015-yil 14-iyuldaggi 2696-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi” Nizomi talablariga asosan amalga oshiriladi.

VI. Investitsion faoliyatni amalga oshirish bo‘yicha cheklovlar

35. Bankning bitta korxonaning ustav fondiga kiritgan investitsiyasi hajmi, shuningdek ushbu korxonaning boshqa qimmatli qog‘ozlariga kiritadigan investitsiyalari miqdori bankning birinchi darajali regulyativ kapitalining 15 foizidan oshmasligi kerak.

36. Bankning barcha emitentlarning ustav kapitali va boshqa qimmatli qog‘ozlariga kiritadigan investitsiyalari miqdori birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 50 foizidan oshmasligi kerak.

37. Oldi-sotdi uchun qimmatli qog‘ozlari (Davlat tomonidan milliy va xorijiy valyutasida(Yevrobond) muomalaga chiqarilgan qimmatli qog‘ozlari bundan mustasno)ga kiritilgan bank investitsiyalari miqdori birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak.

38. Bank boshqa banklarning ustav kapitalida (chet el kapitali va yordamchi banklar tashkil etish hollari bundan mustasno), shuningdek bank ustav kapitalining o‘n yoki undan ortiq foiziga ega bo‘lgan yuridik shaxsning ustav kapitalida ishtirok etish huquqiga ega emas.

39. Bank to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita (sho‘ba korxonalar orqali) yuridik shaxsning ustav kapitalining 26 foizidan ko‘prog‘iga egalik qila olmaydi, quyidagi hollar bundan mustasno:

bankning sug‘urta va lizing tashkilotlarining ustav kapitalida ishtiroki;

bankning nobank kredit tashkilotlarining, shuningdek moliya bozori infratuzilmasining bir qismi bo‘lgan yoki banklarga axborot va maslahat xizmatlari ko‘rsatadigan yuridik shaxslarning ustav kapitalidagi ishtiroki;

bankning qimmatli qog‘ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlarning ustav kapitalida ishtirok etishi;

belgilangan tartibda xususiylashtirilgan korxonalarning qimmatli qog‘ozlarining birlamchi bozorida ularning chiqarilishining 50 foizigacha bo‘lgan miqdordagi aksiyalarini sotib olishda qatnashish;

bankka ushbu aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini chiqaradigan aksiyadorlik jamiyatlariga REPO hisob-kitoblarini amalga oshirish man etiladi.

40. Bank investitsiyalariga yuqorida sanab o‘tilgan cheklovlar garov sifatida berilgan qimmatli qog‘ozlarga garov huquqlarini amalga oshirish natijasida bank tomonidan olingan qimmatli qog‘ozlarga nisbatan qo‘llanilmaydi.

41. Garov huquqlarini amalga oshirish natijasida qimmatli qog‘ozlar kelib tushgan taqdirda, bank olingan qimmatli qog‘ozlarni 2 oy ichida sotishi shart. Agar ko‘rsatilgan muddat ichida qimmatli qog‘ozlar sotilmasa, ular “Sotishga mo‘ljallangan qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar” yoki “Qaram xo‘jalik jamiyatlariga, qo‘shma korxonalarga va sho’ba xo‘jalik jamiyatlariga qilingan investitsiyalar yoxud so‘ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog‘ozlariga qilingan investitsiyalar”ning tegishli hisobvaraqlariga o‘tkaziladi va qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarini amalga oshirishda yuqoridagi cheklovlar qo‘llaniladi.

42. Bank Kuzatuv kengashi, amaldagi qonunchilik doirasida, har qanday emitentning qimmatli qog‘ozlariga bank tomonidan kiritiladigan investitsiyalar hajmiga qo‘srimcha cheklovlni belgilash huquqiga ega, agar emitentning faoliyati yoki bankdagi amaldagi yoki rejallashtirilayotgan investitsiyalar hajmi omonatchilar, kreditorlar va aksiyadorlarning manfaatlariga zarar etkazishi yoki xodimlarning bank investitsiyalarini boshqarishda tajribasi yetishmasligi holatlari bo‘lganda.

VII. Vakolatlar darajasi va javobgarlik taqsimoti

43. Siyosat Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruving mablag‘larni investitsiyalash to‘g‘risida qaror qabul qilish tartibini va qimmatli qog‘ozlar va sotib olingan/sotilgan ulushlar haqidagi bitimlarning maksimal miqdorini cheklash tartibini belgilaydi.

44. Bank investitsiya strategiyalariga muvofiq mablag‘larni investitsiyalash to‘g‘risida qaror qabul qilishda vakolatlarning ikki xil darajasiga ega:

Bank Kuzatuv kengashi;

Bank Boshqaruvi.

45. Bank Kuzatuv kengashi va bank Boshqaruving investitsion qarorlar qabul qilish masalasi borasidagi vakolatlari va javobgarlik darajasi quyida keltirilgan:

Vakolatlar darajasi	Bitta emitentga to‘g‘ri keladigan investitsiyalar summasi	Investitsiyalarning umumiy miqdori
Portfel		
Bank Kuzatuv kengashi	1-darajali regulyativ kapitalining 5 foizidan yuqori bo‘lsa	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o‘rnatilgan me’yorlar asosida
Bank Boshqaruvi	1-darajali regulyativ kapitalining 5 foizigacha bo‘lsa	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o‘rnatilgan me’yorlar asosida
Dasturiy investitsiyalar va mavjud qayta tashkil etiladigan korxonalarga investitsiyalar*		
Bank Kuzatuv kengashi	1-darajali regulyativ kapitalining 15 foizidan yuqori bo‘lsa	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o‘rnatilgan me’yorlar asosida
Bank Boshqaruvi	1-darajali regulyativ kapitalining 15 foizigacha bo‘lsa	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o‘rnatilgan me’yorlar asosida
Oldi-sotdiga mo‘ljallangan investitsiyalar		
Bank Kuzatuv kengashi	1-darajali regulyativ kapitalining 10 foizidan yuqori bo‘lsa	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o‘rnatilgan me’yorlar asosida
Bank Boshqaruvi	1-darajali regulyativ kapitalining 10 foizgacha bo‘lsa	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o‘rnatilgan me’yorlar asosida

*Sho‘ba va qaram xo‘jalik subyektlari tashkil etish haqidagi qarorlarni qabul qilishdan tashqari

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan cheklovlar Davlat tomonidan milliy va xorijiy valyutasi ko‘rinishi (Yevrobond)da muomalaga chiqarilgan qimmatli qog‘ozlari bilan bog‘liq bo‘lgan amaliyotlarga nisbatan qo‘llanilmaydi.

46. Bankning Investitsiya qo‘mitasi bankning G‘aznachilik departamenti bilan birgalikda har chorakda Bank kuzatuv kengashiga bankning investitsiya portfelining holati to‘g‘risida hisobot beradi.

VIII. Yakuniy qoidalar

47. Ushbu Siyosat, shuningdek unga kiritiladigan o‘zgartish va qo‘srimchalar Bank Kuzatuv kengashining qarori bilan tasdiqlanadi.

48. Bank xodimlari ushbu Siyosat bo‘yicha ish yuritayotganda korruptsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka, jumladan:

korruption harakatlarni to‘liq taqiqlashi va har qanday moddiy shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita) berishi va boshqa afzallikkarni ta’minlashni to‘liq rad etadi;

amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan bankning korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ichki hujjatlari talablariga amal qiladi;

huquqbuzarlik, jinoyat yoki manfaatlar to‘qnashuvi alomatlari borligi to‘g‘risida aniq faktlar yoki dalillar aniqlangan taqdirda, bu haqida o‘rnatilgan tartibda bank rahbariyatiga xabar beradi.

49. Ushbu Siyosatda ko‘zda tutilmagan boshqa barcha holatlarda bank qonunlar va amaldagi qonunlar bilan tartibga solinadi.

50. Mazkur Siyosat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan kunning ertasidan amalga kiritiladi va mazkur Siyosat kuchga kirishi bilan bank Kuzatuv kengashining 2021-yil 29-yanvardagi 02-sonli majlis bayoni bilan tasdiqlangan ATB “Qishloq qurilish bank”ning Investitsiya siyosati (Yangi tahriri) (ro‘yxat raqami 183-som) o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanadi.

Kiritildi:

G‘aznachilik departamenti direktori

A.Salixov

Kelishildi:

Komplayens nazorat departamenti direktori

J.Yusupov

Risk menejment departamenti direktori birinchi o‘rinbosari

K.Karimov

Lingvist

A.Ravshanov

Yuridik departament Metodologiya boshqarmasi boshlig‘i

S.Raxmatullayev

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Axborot va kommunikatsiyalar boshqarmasi
Ichki me’yoriy hujjat loyihasining lingvistik ekspertiza
Xulosasi

2024-yil 29-mart

Toshkent shahri

156 -son

3. Ichki me’yoriy hujjat
loyihasining turi:

Siyosat

2. Ichki me’yoriy hujjat
loyihasining nomi:

- “**Biznesni rivojlantirish banki**” **ATBning**
Investitsiya siyosati

3. Lingvistik ekspertizani
o’tkazuvchi:

- **A.Ravshanov**

4. Lingvistik ekspertiza
o’tkazilgan sana:

- **2024-yil 29-mart**

5. Loyiha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-oktabrdagi
662-son qarori bilan tasdiqlangan “Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik
ekspertizadan o’tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Loyiha matni qisqa va lo‘nda, ta’riflar aniq, imlo, uslubiy, grammatik va
orfografiya qoidalariaga mos, shuningdek, soha atamalari to‘g‘ri qo‘llanilgan.

Ekspert:



A. Ravshanov

100060 Toshkent shahar, Shayxontoxur tumani, A.Navoiy ko‘chasi, 18A-uy, tel/faks: +998(78) 150-93-39, yurist@brb.uz

2024-yil 16-aprel

Toshkent sh.

YURIDIK XULOSA № 48

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB G‘aznachilik departamenti tomonidan ishlab chiqilgan “**Biznesni rivojlantirish banki**” ATBning Investitsiya siyosati” (Yangi tahrirda) loyihasi Yuridik departament Metodologiya boshqarmasi tomonidan huquqiy ekspertizadan o‘tkazildi.

Mazkur ichki me’yoriy hujjat Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 5-aprelda 916-son bilan ro‘yxatga olingan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me’yoriy hujjatlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom (Nizomning 3-bo‘limi “Tijorat banklarining ichki me’yoriy hujjatlarini ishlab chiqish, tasdiqlash, unga o‘zgartirish kiritish va bekor qilish”) talablariga muvofiq holda ishlab chiqilgan bo‘lib, amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqliqdir.

Shuningdek, hujjat loyihasi O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq ekspertizadan o‘tkazilib, unda korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etish imkoniyatini yaratadigan, korrupsiyaga sabab bo‘ladigan omillar aniqlanmadı.

Yuridik departament Metodologiya
boshqarmasi boshlig‘i

S.Raxmatullayev